



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
ANGREN SHAHAR HOKIMI
F A R M O Y I S H I**

2022 - yil 22 - may

45-10-148-F/22

Angren shahar hokimligi

Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.01.2019 yildagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102 sonli Qaroriga asosan, sektorlar faoliyatining moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilash, sektorlar shtablari faoliyatini tashkil etish, shu jumladan ular uchun ajratilgan binolarni saqlash va boshqa xarajatlarni qoplashni ta‘minlash maqsadida,

1. 2022 yil uchun ajratilgan shahar zahira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1-sektor shtabi faoliyatini samarali tashkil etish, shu jumladan ajratilgan binoni saqlash va ta‘mirlash uchun **153 266,0** (Bir yuz ellik uch million ikki yuz oltmish olti ming so‘m) ming.so‘m mablag‘ ajratilishi ta‘minlansin.

2. Shahar hokimligi Moliya bo‘limi (A.Djabbarov) tegishli hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishni ta‘minlasin.

3. Shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (I.Xunarov) ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. Shahar hokimligi xisobxonasi (T.Eshbaev) belgilangan tartibda ajratilgan mablag‘larni o‘z vaqtida o‘tkazib berilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish hokim o‘rinbosari (Sh.Erkabayev) zimmasiga yuklatilsin.

Angren shahar hokimi v.v.b



J.S.Zayniddinov